

**Navruza MAMAJONOVA,**

*Alfraganus universiteti Nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi*

Tel.: +998938031903

*Filologiya fanlari doktori, professor v.b M.Saparniyozova taqrizi asosida*

## **RESTORONIMLAR VA ULARNING MILLIY – MADANIY XUSUSIYATLARI (TOSHKENT SHAHRI OVQATLANISH SHAHOBCHALARI MISOLIDA)**

Annotatsiya

Ushbu maqolada joy nomlarinin bir tarmog'i hisoblangan restoroniqlarning milliy-madaniy xususiyatlari Toshkent shahridagi restoran nomlari misolida tahlil qilingan. Bunda restoran nomlarining kelib chiqish tarixi ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ergonom, restoronim, nomlash texnologiyasi, milliy, muvaffaqiyatli nom

### **РЕСТОРАНЫ И ИХ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ (В СЛУЧАЕ РЕСТОРАНОВ ГОРОДА ТАШКЕНТА)**

Аннотация

В данной статье на примере ресторанных названий Ташкента анализируются национально-культурные особенности ресторанных названий, которые являются ответвлением топонимов. Также освещена история происхождения названий ресторанов.

**Ключевые слова:** эргоним, рестораноним, технология нейминга, национальное, успешное имя

### **RESTAURANTS AND THEIR NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS (IN THE CASE OF TASHKENT CITY RESTAURANTS)**

Annotation

In this article, the national-cultural characteristics of restaurant names, which are a branch of place names, are analyzed on the example of restaurant names in Tashkent. The history of the origin of restaurant names is also covered.

**Key words:** ergonom, restaurantonim, naming technology, national, successful name

**Kirish.** Mamlakatlar o'rtasida tashqi savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanib borar ekan, bu, albatta, turmushimizning har bir sohasida yangi nomlar paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Ana shunday hayotimizning turli jabhalarida paydo bo'layotgan nomlarni biz ergoniqlar deb ataymiz.

Ergonom - jamiyat hayotining turli sohalarida (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy) faoliyat yurituvchi korxona yoki tashkilotlarning nomi. Bulariga ijodiy uyushmalar, xalqaro tashkilotlar, ta'lim muassasalari, sport jamiyatları, firmalar, korporatsiyalar, savdo, ishlab chiqarish obyektlari misol bo'la oladi[1.28].

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Ergoniqlarning paydo bo'lishi o'tgan asrnin 90-yillardan boshlandi. Bugungi kunda biz uning turli tarmoqlarga, turli yo'nalishlarga ajralganini ko'rishimiz mumkin. E.Begmatov o'z tadqiqotida o'zbek tilida mavjud bo'lgan quyidagi atamalarni sanab o'tadi: antroponiya, zoonimiya, teonimiya, toponomiya, kosmonomiya, fitonomiya, xronomim, politonim, ergonom, faleronom, dignitonim, poreyonim, mifonim, anemonim, stratonim, gemenonim, ideonim. Tadqiqotchi mana shu 19 ta atamaning 15 tasiga izoh berib, ularning aksariyati o'zbek tilshunosligida hali o'z tadqiqotchilarini kutib turganligini qayd qiladi [2.26-30].

Filologiya fanlari doktori M.Saparniyozova tadqiqotlarida esa bu jarayon bataysil yoritilib, ergoniqlarning turli manbalardagi tarmoqlari nomi qayd etilgan. Bulariga istorizmlar, oykomodonimlar, ergourbonimlar, firmonimlar, restoronimlar, trofonimlar, ergoreklamonimlar, glyuttonik pragmatonimlar kiradi[1.35]. Bular ichida restoronimlar ham hali tadqiq etilmagan mavzulardan birdir.

Restoronimlar- restoran nomlaridir.

Umuman olganda obyektlarni nomlash texnologiyasi quyidagi tamoyillariga asoslanishi lozim:

- o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilishi
- o'zbek xalqi milliy mentalitetiga mos ekanligi
- aniqligi va qisqaligi
- o'ziga jalb qilish xususiyati- reklama samaradorligiga ega bo'lishi
- obyekt faoliyat bilan uyg'unlikni hosil qilishi lozim.[3.9]

Ana shu tamoyillarga mos keladigan nomlarni tanlash nomlanayotgan obyektga muvaffaqiyat keltiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda restoran nomlarni tanlashda bu tamoyillardan faqat reklama samaradorligiga ega bo'lish tamoyiliga ko'proq amal qilinayotganligi ko'zga tashlanadi.

Toshkent shahri misolida olib qaraydigan bo'lsak, restoran nomlarini yaratishda xorij so'zlaridan juda ko'p foydalilanilganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, "AMARETTO", "AMIGO", "ANGEL'S PIZZA", "BARBARIS", "BARBEQUE BURGER", "BARBOSS", "CAKE BAKE", "CAKE LAB", "CALDO" kabilar. Bunday nomlarni tanlashdan asosiy maqsad iste'molchilarini e'tiborini o'ziga jalb qilish va reklama qilishdir. Bu albatta shu restoran egasi uchun foya olib kelishi mumkin. Toshkent shahridagi restoran nomlarini ko'rib chiqamiz.

**ARBAT** Restoran nomi. Nomlashning onomastik (mashhur nomlar bilan atash) usuli qo'llangan. Nomga Moskva shahrining qadimiy markaziy ko'chalaridan birining nomi bo'lgan Arbat so'zi asos bo'lgan. Nomlovchi mazkur mashhur nom vositasida mijozlarning e'tiborini tortishni maqsad qilib qo'ygan.

**APRIL VERDANT RESTAURANT** Restoran nomi. Nomlashning xorijiy so'zlardan foydalanish usuli qo'llangan. Inglizcha *april* (*aprel oyi*), *verdant* (*yam-yashil, yashil o'tloq, yashillikka burkangan joy*), *restaurant* (*restoran*) so'zlari birikuvidan hosil qilingan bo'lib, "Apreldagi yashillik restorani" ma'nosini anglatadi.

**ART-HILAL** Restoran nomi. Nomlashning xorijiy so'zlardan foydalanish usuli qo'llangan. Inglizcha *art* so'zi *san'at* ma'nosini bildirib, buyum, surat, musiqa singari ijodiy ishlarni yaratish bilan shug'ullanuvchi faoliyat turiga nisbatan qo'llanadi. *Hilal* arab tilidan olingan so'z bo'lib, *oy* ma'nosini bildiradi. Art va Hilal o'rtasiga chiziqcha qo'yilishiga ehtiyoj yo'q, Hilal Art tarzida to'g'ri bo'ladi.

**Axtamar.** Restoran nomi. Nomlashning xorijiy so‘zlardan foydalanish usuli qo‘llangan.O‘rta asr arman me’moriy yodgorliklarining noyob namunalari saqlangan Van ko‘lidagi orol (hozirgi Turkiya hududida), Arsrundaiylar (arman) podshoxlari qarorgohining nomidan olingan.

Lekin shu restoranlarga mos o‘zbekcha nomlar tanlash yanada maqsadga muvofiq. Bu birinchi navbatda tilimizga bo‘lgan hurmatning ifodasidir. Masalan **CENTRAL ASIAN PLOV CENTRE** Restoran nomi (Toshkent). Nomlashning xorijiy so‘zlardan foydalanish usuli qo‘llangan. Inglizcha *Central Asian (Markaziy Osiyo)*, o‘zbek tilidan o‘zlashgan *plov (palov)* hamda *centre (markaz)* so‘zleri birikuvidan hosil bo‘lgan. Ushbu nomni o‘zbek tiliga **Markazi Osiyo palov markazi** tarzida o‘girish mumkin.

Nomlashning milliylik tamoyiliga mos ravishda restoranni **Osh markazi** deb nomlash maqsadga muvofiq.Zero bugungi kun o‘zbek tilining dunyo bo‘ylab tanilishini taqozo etmoqda. Shunga ko‘ra Toshkent shahridagi restoran nomlarini ko‘rib chiqamiz.

**Afsona** Oilaviy restoran nomi . Nomlashda so‘zning assotsiativ ma’nolariga asoslanish usuli qo‘llangan. Nomga “og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan rivoyat”, “aql bovar qilmaydigan hodisa” kabi ma’nolarda qo‘llanuvchi *afsona* so‘zi asos bo‘lgan. Nom vositasida kelib chiquvchi “restoranimizdagi taomlar afsonalardagi kabi mazali” assotsatsiyalar restoranning samarali reklamasi uchun xizmat qiladi.

**ADRAS.** Nomlashning etnomadaniy so‘zlardan foydalanish usuli qo‘llangan. *Adras* so‘zi adresat tasavvurida ushu matoning kamalak ranglarini jonlantirib, uning kayfiyatiga ijobiy ta’sir qilib, xuddi kamalakdek turfa xil taomlar tayyorlanishiga ishora qiladi. Chet elliq sayyoohlarning esa o‘zbek milliy hunarmandchilik san’ati xususidagi tasavvurlarini boyitadi.

**BAHOR** Restoran nomi.. Nomlashning so‘zning assotsiativ ma’nolariga asoslanish usulidan foydalanilgan. Adresatda bahor fasli, tabiat go‘zalligi haqidagi assotsatsiyalarini yuzaga keltirib, uning ruhiyatida ijobiy his-tuyg‘ularni paydo qiladi va restoran reklamasiga samarali xizmat qiladi.

**BOG‘I CHINOR.** Restoran nomi. Nomlashning tarixiy joy ma’nosiga asoslanish usulida foydalanilgan. Restoronim mashhur tarixiy shaxs Amir Temur qurdirgan mashhur bog‘ nomiga asoslangan.

**Tahlil va natijalar.** Prezidentimiz o‘z nutqida bunday muammolarga e’tibor qaratar ekan, quyidagilarni alohida ta’kidladi: “Jamiyatimizda til bilan bog‘liq eng ko‘p muhokama qilinayotgan, haqli e’tirozlarga sabab bo‘layotgan mavzu – bu joy nomlarini belgilash masalasi desak, xato bo‘lmaydi. Afsuski, jamoat joylarida, ko‘chalarda, binolar peshtoqida toponimik belgilar, turli lavha va reklamalar ko‘pincha xorijiy tillarda, ma’naviyatimizga yot mazmun va shakllarda aks ettirilmoqda. Bu davlat tili talablariga, milliy madaniyat va qadriyatlarimizga bepisandlikdan, umumiy savodxonlik darajasi esa tushib ketayotganidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi Atamalar komissiyasi bilan birgalikda ushu masalalarni keng jamoatchilik ishtirokida jiddiy o‘rganib chiqishi va tartibga solishi zarur. Chunki ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma’naviy savyiamizni yaqqol ko‘rsatadigan o‘ziga xos mezondir. Buni hech kim hech qachon unutmasligi kerak. Biz xalqimizning taqdiri, ertangi kuni haqida o‘ylar ekanmiz, eng avvalo, millatimizning asl fazilatlarini, go‘zal urf-odatlarimiz, betakror san’atimiz va adabiyotimizni, ona tilimizni ko‘z qorachig‘iday saqlashimiz zarur.”[4.22]

O‘zbek madaniyatining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri bu ovqatlanish, taom bilan bog‘liq jarayonlardir. Qadimdan ota-bobolarimiz qarindosh urug‘lar bilan yig‘ilib, bir payola choy ustida yengil tanovul qilib, dildan suhbat qurishni afzal ko‘rishgan. So‘nggi vaqtarda kafe va restoranlarga“GAP”, “AKA-UKA MILLIY TAOMLARI” [1], “OPA-SINGILLAR BALIQ MARKAZI” [2], “OILA”[3] kabi nomlarning tanlanishi milliy va madaniy qadriyatlarimizga asoslanadi.

Toshkent shahrida umumiyoq ovqatlanish obyektlariga berilgan nomlar ichida “CHIROQCHI JIZ”, “G‘IJDUVON KABOBLARI”, “OLOT SOMSA” kabi nomlar uchraydi. Mazkur nomlar oshxona, kafe kabi ovqatlanish obyektlarida taomlarning shu shahar aholisi taomnomasi bo‘yicha tayyorlanishini anglatadi. Agar muayyan hududlarda tayyorlanadigan taom turlari xalq orasida xush ko‘rib tanovvul qilinadigan bo‘lsa, shu hudud nomi ishtirokida hosil qilingan nom iste’molchini ko‘proq o‘ziga jalb eta oladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Joy nomlariga, shuningdek ovqatlanish shahobchalariga aynan milliy nomlarni tanlash maqsadga muvofiq. Balandparvoz xorijiy so‘zlarining o‘z tilimizda ham muqobil variantlarini topish va obyektlarini nomlash avvalo o‘z tilimizga hurmat belgisidir. Shuningdek, nomlash texnologiyasi qoidaligara ham amal qilgan bo‘lamiz.

O‘zbekistondagi umumiyoq ovqatlanish tizimida faoliyat yuritayotgan restoranlar nomlarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga keldik: restoran nomi uning interyeri va dizayniga hamohang bo‘lishi lozim; restoran nomi va taomnomasi uyg‘unligini saqlash restoran imidjini ta’minkaydi; restoranni nomlashda glyuttonik pragmatonimlarning xususiyatlarini o‘rganib, restoran faoliyati va yo‘nalishidan kelib chiqib nom tanlash maqsadga muvofiqdir.

## ADABIYOTLAR

1. [https://www.instagram.com/aka\\_uka\\_milliy\\_taomlari/](https://www.instagram.com/aka_uka_milliy_taomlari/)
2. [https://yandex.uz/maps/org/opa\\_singillar\\_baliq\\_markazi/140129789181/](https://yandex.uz/maps/org/opa_singillar_baliq_markazi/140129789181/)
3. <https://yandex.uz/maps/org/oila/92436903459/>
4. Saparniyozva M. o‘zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi:f.f.d. diss.-T. Toshdo‘tau, 2023y.
5. Begmatov E. Toponimlar imlosi muammolari. // O‘zbek tili va adabiyoti, №3, 1996. – B. 26-30
6. Xudoyberganova DTashkilot, korxona va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati-T. Toshdo‘tau, 2021y
7. Sh.M.Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi //<https://www.gazeta.uz> /oz/2019/10/22/uzbek-language
8. Saparniyozva M., O‘rozov J. O‘zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxona va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Lutfullayeva D., Saparniyozva M., Davlatova R. O‘zbek tilida nom yaratishning lingistik-me’yoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022.
9. Одилова Г. Хусусий дискурслар лингвомаданий талкинининг назарияси ва амалиёти. Филол.фун.докт... (PhD) автореф. – Т., 2020.